



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING BUYRUG‘I

2023-y. “ 10 ” iyul

129 - son

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga muvofiq hamda ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi – foydalanish bo‘yicha talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti **1-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha nizom **2-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti **3-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnoma **4-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma **5-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti **6-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti **7-ilog**vaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlari:

bir hafta muddatda xodimlarini mazkur buyruq bilan tanishtirilishini ta'minlasin;

mazkur buyruqqa muvofiq **besh kun muddatda** tashkilotning o'z buyruqlarini qabul qilsin.

3. Mazkur buyruqning ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



Sh. Kudbiyev

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash**

USLUBIYOTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiyot O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga (keyingi o'rinlarda – vazirlik tizimi) yuklangan majburiyat va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha talablarni belgilab beradi, shuningdek, tizimda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

2. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

vazirlik tizimi faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan funksiyalari va lavozimlarini belgilash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha samarali oldini olish choralari ishlab chiqish.

3. Vazirlik tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagilar ishlab chiqilishini ko'zda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

vazirlik tizimida, korrupsiyaga qarshi kurashish chora (tadbir)larni, mas'ul shaxslarni, amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o'z ichiga belgilab olgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur.

4. Vazirlik tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o'zgarishi;

funksiya yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi vazirlik tizimining ichki hujjatlari o'zgarishi;

vazirlik tuzilmasining, funksiyalarni amalga oshirish jihatlarining o'zgarishi, yangi funksiyalarning paydo bo'lishi;

vazirlik tizimi funksiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlarning kirib kelishi.

5. Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan:

korruptsiyaviy xavf-xatar – vazirlik tizimi xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan vazirlik tizimi nomidan va (yoki) ularning manfaatlaridan kelib chiqib sodir etilishi mumkin bo‘lgan korruptsiyaviy harakatlar;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – amalga oshiriladigan funksiyalarni tahlil qilish, ularning korruptsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek, funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-taomillar uchun o‘ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati;

korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi – korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan hamda vazirlik funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korruptsiyaviy xavf-xatar (sxema)lar tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korruptsiyaviy xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi hujjat;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi – vazirlik tizimidagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan, tizim funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korruptsiyaviy xavf-xatar (sxema)lar tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

korruptsiyaviy harakatlar – bu pora beruvchi va (yoki) uchinchi shaxslar manfaatlarini ko‘zlagan holda xodim tomonidan harakat yoki harakatsizlik uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya‘ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy xarakterga ega xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, undirish, taklif qilish, va‘da qilish va berish, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiy jarayonlarni soddalashtirish uchun to‘lovlar qabul qilish (pora olish) va boshqa qonunga xilof maqsadlarda shaxs tomonidan o‘z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanishdir;

korruptsiyaviy huquqbuzarlik – korruptsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

qoldiq xavf-xatar – korruptsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralar (ya‘ni, amaldagi korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatni va tartib-taomillarni, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda) qabul qilingandan so‘ng qoluvchi xavf-xatar;

tartib-taomil – vazirlik tizimi funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo‘linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan,

yoxud ma'lum bir funksiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo'yicha bir guruhga birlashtirish mumkin bo'lgan harakatlar yig'indisi;

o'ziga xos xavf-xatar – vazirlik tizimi faoliyati va amalga oshirilayotgan funksiyalari spetsifikasidan (shu bilan birga uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi hisobga olinmagan ya'ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillari, xavf-xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va joriy etilgan nazoratlar hisobga olinmagan holda) kelib chiqadigan xavf-xatar;

funksiya – bir nechta tartib-taomilni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan vazirlik tizimining ichki jarayon (faoliyat yo'nalish)laridan biri;

ekspert fikri – qandaydir fakt yoki hodisa bo'yicha xodim yoki bo'linmaning subyektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori.

6. Vazirlik tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash vazirlik rahbariyati topshirig'i asosida uni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi.

7. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning tarkibi quyidagilar tomonidan tasdiqlanadi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi uchun – vazir tomonidan;

hududiy va tarkibiy bo'linmalar bo'yicha – tegishli boshqarma yoki muassasa rahbarlari tomonidan.

8. Ishchi guruhlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

Vazirlik Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi (*keyingi o'rinlarda – boshqarma*) yoki tegishli tasarrufiy yoki hududiy tuzilmalarida boshqarmaning mas'ul xodimi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar funksiyalarini bajaruvchi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari;

Vazirlik tizimining korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini baholash borasida yetarli bilim va tajribaga ega bo'lgan boshqa xodimlari.

9. Ishchi guruh quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarni jalb qilgan holda vazirlik tizimida xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar, shuningdek, vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalariga mazkur Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibga rioya qilish bo'yicha maslahatlar beradi;

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlardan olingan korrupsiyaviy

xavf-xatarlar xaritalarni korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasiga umumlashtiradi;

tegishli rahbarlarga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini taqdim etadi;

vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;

zarur hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullardan qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni so'rab oladi;

korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan takliflarni kiritadi;

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa tayyorlaydi;

ushbu Uslubiyotida ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi va o'tkazadi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash doirasida ishchi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

tegishli hududiy va tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi;

tegishli hududiy va tarkibiy bo'linmalarga mazkur Uslubiyotida ko'zda tutilgan tartibga rioya qilinishi bo'yicha maslahat beradi;

zarur hollarda tegishli qo'shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi;

tegishli hududiy va tarkibiy bo'linmalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi;

ushbu Uslubiyotida ko'zda tutilgan tartibda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari kelishilishini ta'minlaydi;

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlarda korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan takliflar kiritadi;

vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotida ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash

11. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni tegishli Iqtisodiyot va moliya vaziri, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlar rahbarlarining buyruqlari asosida amalga oshiriladi.

Vazir buyrug'i loyihasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi tomonidan tayyorlanadi. Buyruq loyihasida ushbu Uslubiyotida ko'zda tutilgan har bir bosqichni amalga oshirish muddatlari shartli ravishda ko'rsatiladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashning umumiy muddati 3 oydan oshmasligi lozim.

12. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini baholash va tegishli funksiyalar doirasida vazirlik tizimi xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o'z ichiga oladi.

13. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, pastdan tepaga (*tegishli tasarrufiy va hududiy tuzilmalardan Iqtisodiyot va moliya vazirligi darajasigacha*), mazkur bobning 14 – 20-bandlarida ko'rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

14. Birinchi bosqichda ishchi guruhlar rahbarlari ushbu Uslubiyotga 1-ilovada keltirilgan Funksiyalarni tasniflash shakli (*keyingi o'rinlarda – shakl*) bo'yicha vazirlik tizimining tarkibiy bo'linmalari rahbarlari uchun topshiriq qabul qilishadi.

Topshiriqda to'ldirilgan shakllarni ishchi guruhga taqdim etish muddatlari ko'rsatilib, bu muddat 10 ish kunidan kam bo'lmazligi kerak.

Shakllarni to'ldirish *.xls (*.xlsx) yoki *.doc (*.docx) elektron formatida amalga oshiriladi. Shakllarga qo'shimchalar qo'shishga yo'l qo'yilmaydi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi tarkibiy bo'linmalari rahbarlari Shakllarni quyidagi tartibda to'ldiradi:

shakllarga funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan funksiya va tartib-taomillar ro'yxati, shu bilan birga, uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlarni kiritadi; o'z tajribasi va ushbu Uslubiyotning 4-bobida bayon etilgan mezonlar asosida har bir funksiya va tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik va o'ziga xos xavf-xatari darajasini baholaydi;

eng ko'p korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan funksiyalarga kiradigan tartib-taomillar quyidagilar to'g'risida ma'lumot to'ldiriladi:

mazkur tartib-taomil doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan potensial korrupsiyaviy ssenariy (xavf-xatar)lar;

korruptsiyaviy ssenariy (xavf-xatar)larni amalga oshirish xavfini kamaytirishga qaratilgan korruptsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar;

korruptsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari kiritilgan huquqiy-me'yoriy va ichki hujjatlar;

shuningdek, o'z tajribasiga tayangan holda ushbu Uslubiyotning 4-bobida bayon etilgan mezonlar asosida qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar darajasini baholaydi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufdagi tashkilotlar tomonidan to'ldirilgan Shakllar tahlil uchun ishchi guruhlar tarkibidagi boshqarma xodimlariga yoki korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarga beriladi. Funktsiyalar, tartib-taomillar va ularga berilgan xavf-xatar darajalariga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, boshqarma xodimlari, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar, funktsiya, tartib-taomilni bajarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga izoh berish yoki shakllarga tuzatish kiritish uchun so'rov yuboradi. Bunda, so'rovga javob so'rov olingan kundan boshlab 2 ish kunidan oshmagan muddatda yuborilishi lozim.

Boshqarma xodimlari, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar o'z ekspertlik fikriga tayangan holda funktsiyalar, tartib-taomillarning korruptsiyaviy xavf-xatar darajasini to'g'rilashi, shuningdek, tegishli funktsiya, tartib-taomil bo'yicha tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholashga boshqa o'zgartirishlar kiritishlari mumkin.

Shakllarning to'liq to'ldirilganligi, Uslubiyotga rioya qilinishi, turli bo'linmalar tomonidan to'ldirilgan shakllardagi nomutanosibliklarning tahlili natijalari bo'yicha boshqarma xodimlari, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar hududiy va tarkibiy bo'linmalarning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini mazkur Uslubiyotning 3-ilovasida ko'zda tutilgan shakl bo'yicha to'ldiradi, shu bilan birga, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqib, ularga kiritadi.

Boshqarma xodimlari, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar hududiy va tarkibiy bo'linmalarning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritayotgan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni tegishli tarkibiy bo'linma rahbari bilan kelishadi. Agar boshqarma xodimlari, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar, hududiy va tarkibiy bo'linmalar rahbarlari aniqlangan xavf-xatarlar, funktsiyalar va tartib-taomillarni baholash darajasi, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar hamda boshqa masalalarda bir to'xtamga kela olmagan bo'lsalar, ikki fikr tegishli tarkibiy bo'linmaning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasida aks ettirilib, tegishli ishchi guruh tomonidan ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

Ishchi guruhlar yig'ilishi yakunlari bo'yicha bayonnomalar tuzilib, ularda qabul qilingan qarorlar qayd etiladi. Bayonnomalar ishchi guruhlarning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi va boshqarma xodimlari yoki korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullarda saqlanadi.

Hududiy va tarkibiy bo'linmalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini tuzish va kelishish muddati funksiya, tartib-taomilni bajarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari uchun Shakllarni taqdim etishga belgilangan sanadan boshlab 20 ish kunidan oshmasligi lozim.

15. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishchi guruhlar tomonidan tasdiqlangandan keyin korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullar ularni boshqarmaga yuboradi.

16. Olingan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari va vazirlik xavf-xatarlar xaritasi asosida boshqarma ushbu Uslubiyotning 3-ilovasida keltirilgan shakl bo'yicha vazirlik tizimining korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

17. Savollar va e'tirozlar yuzaga kelgan taqdirda, boshqarma tomonidan kelib chiqqan e'tirozlar bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullarga, tegishli hududiy tarkibiy bo'linma rahbarlariga so'rov yuboradi. So'rovga javob 2 ish kunidan oshmagan muddatda berilishi lozim.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish uchun muddat, korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari boshqarmaga taqdim etishga belgilangan sanadan boshlab, 10 ish kunidan oshmasligi kerak.

19. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun boshqarma va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullar ushbu Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

20. Vazirlik tizimining yakuniy korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati bo'lim va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullar taqdimnomasiga asosan vazir va tegishli rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi taqdimnomasiga asosan Iqtisodiyot va moliya vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi (har yillik) baholanishi

21. Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta vazirlik tizimi rahbarlarining tegishli buyruqlari asosida o'tkaziladi.

Iqtisodiyot va moliya vaziri buyrug'i loyihasi boshqarma tomonidan tayyorlanadi. Buyruq loyihasida majburiy ravishda ushbu Uslubiyotida ko'zda tutilgan har bir bosqichni bajarish muddatlari belgilab qo'yiladi.

Keyingi (har yillik) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash muddati 2 oydan oshmasligi lozim.

22. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning har bir keyingi beshinchisi (ya'ni, 5 yilda bir marta) ushbu uslubiyotning 2-bobida ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash tartibida amalga oshiriladi.

23. Vazirlik tizimi rahbarlarining tegishli buyruqlari asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlariga ushbu Uslubiyotga 2-ilovaga muvofiq so'rovnoma yuboradi, unda rahbarlar o'z bo'linmalari funksiyalari va tartib-taomillarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldingi baholanishiga nisbatan qanday o'zgarishlar bo'lganini, shu bilan birga, quyidagi ma'lumotlarni aks ettirishi lozim:

vazirlik tizimi bo'linmalari tomonidan bajariladigan funktsiya, tartib-taomillarga ta'sir ko'rsatadigan qonunchilikda qandaydir o'zgarishlar bo'lganmi;

funktsiya, tartib-taomilini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatgan, boshqa davlat organlari faoliyati yoki tizimida o'zgarishlar yoki boshqa tashqi omillar tomonidan qandaydir o'zgarishlar bo'lganmi;

oxirgi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonidan keyin funktsiya, tartib-taomil tuzilmasida, funktsiya, tartib-taomilni tartibga soluvchi ichki hujjatlarda qandaydir o'zgarishlar yuz berganmi;

oldingi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda ko'zda tutilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilganmi;

vazirlik tizimining tarkibiy bo'linmalarida funksiyalar, tartib-taomillarni bajarish tartibiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlar mavjudmi.

24. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda ularning hududiy bo'linmalari hududiy va tarkibiy bo'linmalari rahbarlari tomonidan to'ldirilgan So'rovnomalarni yig'adi, tahlil qiladi va korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan o'zgarishlarni qayd etgan holda o'zgartirish kiritadi.

So'rovnomalarni to'ldirishda savollar va e'tirozlar kelib chiqsa, boshqarma tegishli rahbarlarga so'rov yuboradi. So'rovga javob 2 ish kunidan oshmagan muddatda taqdim etilishi lozim.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga o'zgartirish kiritish muddati funktsiya, tartib-taomilni bajarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari uchun So'rovnomalarni taqdim etishga belgilangan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi lozim.

25. O'zgartirish kiritilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari (ulardagi o'zgarishlar belgilangan holda) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar tomonidan boshqarmaga yuboriladi.

26. Bo'lim korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzadi va unda avvalgi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga nisbatan o'zgarishlarni qayd etadi.

Savollar va e'tirozlar kelib chiqqan taqdirda, boshqarma tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarga aniqlangan e'tirozlar bo'yicha so'rovlar yuboriladi.

So'rovga javob 2 ish kunidan oshmagan muddatda taqdim etilishi lozim.

27. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish muddati, korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini boshqarmaga taqdim etish uchun belgilangan sanadan boshlab, 10 ish kunidan oshmasligi lozim.

28. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi (korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar) Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

29. Yakuniy korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati, boshqarma (korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar) taqdimnomasiga ko'ra, tegishli tarkibiy bo'linma rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi taqdimnomasiga ko'ra vazir tomonidan tasdiqlanadi.

4-bob. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida amalga oshiriladigan funktsiyalar va tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash uslubiyoti

30. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma'lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashdan o'tkazilgan vazirlik funktsiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlari (misol uchun, tarkibiy bo'linmalar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari to'g'risidagi nizomlar va h. k.);

ichki tekshiruvlar materiallari, shu bilan birga, xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha monitoring natijalari;
odob-axloq komissiyasi yig'ilishlari natijalari;

manfaatdor tomonlar, davlat xizmati oluvchilar, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar orasida o'tkazilgan so'rov, jumladan, ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha vazirlik xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;

vazirlik tizimi faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma'lumotlar;

korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillaridan kelib tushgan murojaatlar;

vazirlik tizimi xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslik to'g'risida fuqarolik jamiyati institutlari murojaatlari va ommaviy axborot vositalari (OAV)dagi axborotlar;

ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan, prokuror nazorati doirasidagi hujjatlar, jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

31. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida vazirlik tizimining har bir funksiyasi va tartib-taomili bo'yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishi imkoniyatlari borligi bo'yicha tahlil qilinishi lozim.

32. Har bir funksiya quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiya.

33. Quyidagi holatlarda korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil funksiya hisoblanadi:

tekshiruv va nazorat funksiyalari;

funksiya doirasida jismoniy va yuridik shaxslar bilan to'g'ridan to'g'ri o'zaro aloqani amalga oshirilishi;

davlat namunasidagi hujjatlarni, ruxsatnomalarni, xulosalarni (jumladan, baholash xulosalarini) berish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ichki hujjatlari bilan belgilangan harakatlarni kelishish va tasdiqlash (ma'qullash);

funksiya doirasida vazirlik tizimining mulki va byudjet mablag'larini ajratish yoki vazirlik tizimining byudjet mablag'lari va mulkni oluvchilarini tanlash;

funksiya doirasida tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatishga oid buyurtmalarni joylashtirishni amalga oshirish;

funksiya doirasida vazirlik tasarrufidagi yer uchastkalari, boshqa ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish shartnomalarini tuzish huquqini berish;

funksiya doirasida subyektiv parametrlarga ko'ra bir nechta talabgorni taqqoslashni amalga oshirish;

funksiya doirasida moddiy-texnik resurslarni saqlash va taqsimlashni amalga oshirish;

vazirlik tizimi tashkilotlarida davlat attestatsiyasini o'tkazish;

vazirlik tizimida xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazish, ishga tiklash masalalarida qaror chiqarish, shuningdek, davlat attestatsiyasini qaytadan topshirishga ruxsatnoma berish;

tekshiruvlar bilan tasdiqlangan shikoyatlar yoki mazkur funksiyaga taalluqli korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berish uchun mo'ljallangan aloqa kanallari orqali kelgan murojaatlar mavjudligi;

mazkur funksiyani amalga oshirish doirasida korrupsiya faktlari yoki unda gumon qilishga oid axborotlar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar chop etilishi;

funksiyani amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linma rahbari vakant joyining mavjudligi yoki tarkibiy bo'linma rahbarlarining tez-tez almashib turishi;

huquqni muhofaza qilish, boshqa davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan funksiya bilan bog'liq korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan taqdim etilgan materiallari mavjudligi;

lavozim majburiyatlarini bajarishda tasdiqlangan manfaatlar to'qnashuvi faktlari, jumladan, favoritizm, nepotizm (qarindosh-urug'chilik), mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik faktlarining mavjudligi.

34. Uslubiyotning 33-bandida ko'zda tutilmagan holatlarda funksiya korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil funksiya hisoblanadi.

35. O'rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o'ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi:

o'ziga xos yuqori korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos o'rta korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos past xavf-xatarlar ko'zda tutilmagan va Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasining asosli xulosasi asosida istisno tariqasida qo'llanishi mumkin.

36. Potensial korrupsiyaviy ssenariy (xavf-xatar)lar quyidagilarni amalga oshirish imkoniyatini hisobga olgan holda ifodalanadi:

xodimlar yoki uning yaqin qarindoshlari orqali poralarni, shuningdek, asossiz, yuqori mukofotlarni olish, xodim o'z xizmat vakolatlarini vijdonan bajarmayotgani sababli tovarlarni xarid qilish, turli vazirliklar va/yoki shaxslar xizmatidan foydalanganda preferensiyalar yoki imtiyozlarga ega bo'lish;

davlat xizmatlarini olish va ko'rsatish paytida sun'iy to'siqlarni yaratish;

belgilangan muddatlarda qaror qabul qilmaslik yoki navbatdan tashqari yoxud ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan mavjud talablarni aylanib o'tgan holda tezkorlik bilan qaror qabul qilish;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga ataylab yolg'on ma'lumotlar kiritish;

xizmat vakolatlarini bajarishda manfaatlar to'qnashuvi, jumladan, favoritizm, nepotizm (qarindosh-urug'chilik), mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik holatlari mavjudligi.

37. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarli hodisa amalga oshirishining ehtimoliy ta'siri mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.1-jadvalida belgilangan mezonlarni va xavf-xatarli hodisa yuzaga kelishi ehtimoli mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.2-jadvalida belgilangan mezonlarni hisobga olgan holda xavf-xatarlar ahamiyati matritsasidan foydalanib amalga oshiriladi (5-ilova 5.1-rasm).

5-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarning qoldiq darajasini minimallashtirish choralari

38. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini minimallashtiruvchi tadbirlar, nazoratlar va harakatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

vazirlik tizimi funksiyalari va tartib-taomillarini aniq belgilab berish;

davlat xizmatlari ko'rsatish tartib-taomillarini maqbullashtirish, asossiz cheklovlar, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bartaraf qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini istisno qilish, diskretsion vakolatlar sonini kamaytirish, taqdim etilayotgan hujjatlar va qarorlar qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

ma'muriy tartib-taomillar va boshqa harakatlar doirasida murojaat etuvchilar va vazirlik tizimi xodimlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash, elektron ma'lumot almashish tizimini joriy etish;

xizmat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun axborot texnologiyalarini qo'llash sohalarini ko'paytirish, ularni qayd etish uchun videokuzatuv va audio-yozuv vositalaridan foydalanish;

rasmiy veb-sayt va boshqa OAVlarda davlat xaridlariga doir ma'lumotlarni joylashtirish orqali keng ommaga tarqatish;

fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va OAV bilan o'zaro aloqa shakllarini kengaytirish va birinchi navbatda davlat organidagi korrupsiya holatlari to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilishni rag'batlantirish;

vazirlik markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar xodimlari bilan tushuntirish tadbirlarni va profilaktik suhbatlarni o'tkazish, "Ishonch telefoni" va aloqa kanallarini targ'ibotini amalga oshirish;

vazirlik tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish, bilimni oshirish;

nomzodlarni tanlab olish mexanizmini takomillashtirish, aniq mezonlarni belgilash va shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlarni majburiy rotatsiya qilish tartibini tasdiqlash;

qarorlarni yakka tartibda qabul qilish bilan bog'liq vaziyatlarni qisqartirish, shuningdek, xodimlarning qabul qilingan qarorlari bo'yicha qo'shimcha hisobdorlik shakllarini joriy etish;

xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish masalalariga doir ichki hujjatlarga rioya etishi ustidan nazoratni ta'minlash;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlarining samarali amal qilishini ta'minlash.

39. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

har bir chora vazirlik tizimi xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etishi;

har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

40. Vazirlik markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

41. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini bajarmaganlik yoki tegishli ravishda bajarmaganlik uchun javobgarlik vazirlik tizimi tegishli rahbari zimmasiga yuklatiladi.

42. Vazirlik tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

43. Zarurat tug'ilganda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi taklifiga ko'ra, vazirlik tizimining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi.

**Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keyingi bosqichda baholash uchun
vazirlik tizimi tuzilmalarini tasniflash bo'yicha so'rovnoma**

SHAKL I

Quyidagi savollarga javob bersangiz (kerakligini tagiga chizing):

1. Korrupsiyaviy xavf-xatar so'nggi marta baholangandan so'ng qonunchilikda qandaydir o'zgarishlar sodir bo'ldimi? Agar javob
ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) ha B) yo'q

2. Tarkibiy bo'linmangiz tomonidan bajariladigan tuzilma yoki funktsiya faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda
korrupsiyaviy xavf-xatar so'nggi marta baholangandan so'ng qandaydir o'zgarishlar sodir bo'ldimi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyida
keltirilgan shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) ha B) yo'q

3. Korrupsiyaviy xavf-xatar so'nggi marta baholangandan buyon davlat boshqaruv organlari faoliyati/tuzilmasida tarkibiy
bo'linmangiz tomonidan bajarilayotgan funktsiyaga ta'sir qilgan/ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qandaydir o'zgarishlar yuz berdimi?

Agar javobingiz ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) ha B) yo'q

4. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avvalgi baholashda ko'zda tutilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-
tadbirlari amalga oshirildimi? Nima va qachon amalga oshirilganini ta'riflab bering. Agar amalga oshirilmagan yoki qisman amalga
oshirilgan bo'lsa, sababini yozing.

A) ha B) yo'q

V) qisman amalga oshirilgan

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi bo'linmalarida funksiyalarni bajarish va tartib-taomillarni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlar mavjudmi? Agar javobingiz ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) ha B) yo'q

№	Davlat organi/idorasi / hududiy boshqarma, idoraviy markaz yoki muassasa nomi	Davlat organi/idorasi/hududiy boshqarma, idoraviy markaz yoki muassasa bo'linmasi nomi	Funksiyalar o'zgargani sabablari O'zgargan funksiya ta'rifi	Funksiya doirasida bajarilayotgan yangi/o'zgargan tartib-taomillar	Tartib-taomillarni bajarish uchun mas'ul shaxslar	(F.I.O., lavozimi)
1.1.1.						
1.1.2.						
...						

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi tashkilot nomi: _____

Bo'linma: _____

To'ldirayotgan shaxsning lavozimi: _____

To'ldirayotgan shaxsning F.I.O.: _____

Imzo: _____

To'ldirish sanasi: _____

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
tizimida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash
uslubiyotiga
4-ilova

**Korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar
RO'YXATI**

№	Tashkilot nomi	Tashkilot tuzilmasi nomi	Lavozim (funktsiyalarini bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni ko'rsatgan holda)
1.1.			
...			
2.1.			
...			

5.1-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli darajasini aniqlash mezonlari

Ehtimoli	Ta'rifi
Yuqori	– O'ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori – Nazorat tadbirlarining mavjud emasligi / sezilarli darajada kam-ko'stini to'ldirish kerak bo'lgan nazorat tadbirlarining mavjudligi – Tartib-taomilni ichki hujjatlar yordamida aniq tartibga solinishi mavjud emasligi – Tartib-taomilni avtomatlashtirish mavjud emasligi / darajasi pastligi
O'rtacha	– O'ziga xos xavf-xatar darajasi o'rta – Tartib-taomil tartibga solingan, kam-ko'stini oz miqdorda to'ldirish kerak bo'lgan nazorat tadbirlari joriy etilgan – Tartib-taomil tartibga solingan, qisman avtomatlashtirilgan, biroq yetarli darajada shaffof emas – O'ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo'lgan nazorat tadbirlari, jumladan, davlat organi/idorasi tizimining ichki hujjatlari bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazorat (davlat organi va tashkiloti hududiy va tarkibiy davlat bo'linmalarining nazorat qilinishi)ni ko'zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi – Tartib-taomil qisman yoki to'liq avtomatlashtirilgan
Past	– O'ziga xos xavf-xatar darajasi past – O'ziga xos xavf-xatar darajasi o'rta hamda xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo'lgan nazorat tadbirlari, jumladan, ichki hujjatlar bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazoratni ko'zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi – Tartib-taomil to'liq avtomatlashtirilgan

5.2-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatarning ta'sir darajasini aniqlash mezonlari

Ta'sir	Obro'ga putur yetkazish	Javobgarlik
Yuqori	– Xavf-xatar tashkilot tizimining mamlakat va xalqaro miqyosdagi obro'siga sezilarli ravishda putur yetkazadi	– Tashkilot tizimi xodimlariga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish uchun tegishli organlarga hujjat yuborish tashabbusi bilan chiqish
O'rtacha	– OAVda salbiy hodisaning yoritilishi; – Aholi va hamkorlardan salbiy fikrlar va shikoyatlar olish; – Xavf-xatar davlat organi/idorasi tizimining obro'siga mahalliy darajada putur yetkazadi	– Tashkilot tizimi xodimlariga nisbatan ma'muriy surishtiruv o'tkazish uchun hujjatlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborish tashabbusi bilan chiqish
Past	– Aholi, mahalliy OAVlardan vaziyatga izoh berishni so'rab alohida so'rovlar tushishi mumkin	– Davlat organi/idorasi tizimi xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazish tashabbusi bilan chiqish mumkin

**5.1-rasm. Xavf-xatarning ahamiyatlilik matritsasidagi joylashuvi
(qoldiq xavf-xatar darajasini aniqlash)**

